

MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11403929>

Azizova Manzura Ibragimovna
TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrası dotsenti

Bugungi taraqqiyot kelajak rivojlanishiga zamin bo'ladi. Bu qoida har bir jamiyatning asosiy dasturamali sifatida amalga oshmoqda. Taraqqiyot jamoa, guruh, va shaxsni rivojlanishi bilan birgalikda kechadi. Bugungi davr rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilish, mamlakatimizda bozor islohotlarini chuqurlashtirish, aholini ijtimoiy himoyalash, jamiyatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarning keng tizimini yaratish, mehnat bozorini rivojlantirish va aholi turmush darajasini ko'tarish imkonini beruvchi huquqiy asoslarini mukammallashtirishni taqozo etmoqda. Bunda iqtisodiyotning ya'ni innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliya tizimining rivoji muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda innovatsiyaga bo'lgan talab anacha kuchayib bormoqda. Har bir sohada yangiliklar qilinmoqda, yaratilmoqda va buning uchun investitsiyalar kiritilmoqda. Bularni hisobga olgan holda innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliya tizimini rivojlantirish dolzarb bo'lib bormoqda.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda faol innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qulay shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston 2030-yilda dunyodagi 50 ta innovatsion iqtisodiyot qatoridan o'rin olishni rejalashtirmoqda. «Innovatsiyalar darajasi qancha yuqori bo'lsa, YaIM ko'rsatkichlari ham shuncha baland bo'ladi». Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda etakchi soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulot o'sishining 80-95 foizi texnika va texnologiyada aks etgan bilimlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham zamonaviy innovatsion iqtisodiyotning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni keltirishimiz

mumkin: iqtisodiyotning barcha sohalarida zamonaviy informatsion texnologiyalar va kompyuterlashtirilgan tizimlarning mavjudligi; rivojlangan milliy informatsion zahiralari yaratishni ta'minlab beradigan rivojlangan zamonaviy infratuzilmaning borligi; jamiyat hayotining barcha sohalaridagi ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini tezkorlik bilan kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish amalga oshirilganligi; jahon miqyosidagi zamonaviy innovatsion talablarga mos ravishda malakali ilmiy texnik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning o'ta moslashuvchan tizimini yaratish. Bunda albatta moliya tizimi ya'ni innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliya tizimi rivoji muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy islohotlar chuqurlashib horijiy investitsiyalarni jalb qilishga talab va ehtiyojlarni ortib borishi hududlarda investitsiya siyosatini bozor munosabatlariga mos ravishda amalga oshirish, ya'ni investitsiya jarayoni qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish, hududlarda investorlar uchun to'laqonli shart sharoitlar yaratishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasida qulay investitsion muhitni yaratish, mamlakat iqtisodiyotini muhim sohalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan uzoq va o'rta muddatli davlat dasturlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Mustaqil mamlakatimiz moliya bozorida, shu jumladan bank-moliya tizimida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy jahon andozalariga va talablariga mos keladigan moliya-bank tizimi hamda bozor infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda, moliya-bank sohasini yanada erkinlashtirishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslari va ulardan kelib chiquvchi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, global jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida ham mamlakatimiz bank-moliya tizimi barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qoldi. Bugungi kunda bank biznesi Respublikamiz iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, sohadagi aktivlar, kapital darajasi, kredit qo'yilmalari va investitsion amaliyotlar hajmi kabi asosiy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari buni yaqqol tasdiqlamoqda.

Iqtisodiyot taraqqiy etib borishi bilan moliya tizimi, uning soha va bo'g'inlari, moliyaviy munosabatlar mazmuni ham takomillashib boradi. Iqtisodiyot taraqqiyotining shiddatli tus olishi va uning hozirgi bosqichiga mos tarzda moliya

tizimi yangi segmentlarining paydo bo'lganligi, ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu zaruriyat investitsiya fondlari moliyasini o'rganishga o'zining uch jihati bilan bevosita ta'sir ko'rsatdi:

- Moliya fanidan darslik va o'quv qo'llanmalarda moliya tizimi yangi segmentlari – legal va nolegal moliya, “islom moliyasi”, korporativ moliya, moliyaviy infratuzilmani tashkil etuvchi institutlar moliyasining ham berilishi moliyaviy nazariya, korporativ moliya, nobank moliyaviy vositachilari moliyasining uyg'un tarzda rivojlanishini ta'minlaydi;

- Moliya bozori, qimmatli qog'ozlar bozori va unda faoliyat yurituvchi intitutsional investorlar faoliyati, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish investitsiya fondlari moliyasining tadqiqisiz to'liq bo'lmaydi;

- Investitsiya fondlari nobank moliyaviy vositachilar tarkibida tadqiq etilishi ularning iqtisodiyot taraqqiyotida o'ziga xos o'rni mavjudligini, ular mablag'larni joylashtirishning muqobil tanlovi sifatida investitsion afzalliklarga ega ekanligini, jahon amaliyotiga mos tarzda ularning rivojlanish istiqbollari porloq ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60- son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmoni 1- ilovasi.
2. Muxamedov F.T. Jahon mintaqalarda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish tendentsiyalari//“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. 2022 yil №1.
3. Sultanov M.A. Moliya tizimi tarkibida investitsiya fondlari moliyasini o'rganish zaruriyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali.
4. O.Komolov. Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari. International Conference on Developments in Education Hosted from Amsterdam, Netherlands.
5. AM Ibragimovna [trends in the development and implementation of artificial intelligence technologies into the economy](#). - Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions, 2023